

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025  
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
58 sahifa, avgust, 2025-yil.

## Bosh muharrir:

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.





# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi .....                                                 | 12 |
| <b>Ibragimov Sanjarbek Salijanovich</b>                                                                                                  |    |
| Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....                                                          | 19 |
| <b>Rajabov Sirojiddin Mansurovich</b>                                                                                                    |    |
| Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi ..... | 26 |
| <b>Karabayev Sanjar Abdusamatovich</b>                                                                                                   |    |
| Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....                         | 33 |
| <b>Karimov Mustafo Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li</b>                                                                         |    |
| Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....                                                     | 42 |
| <b>Baymirzaev Dilmurod Nematovich</b>                                                                                                    |    |
| Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish. ....                                                     | 47 |
| <b>Bobomuratov Imomkul Islamovich</b>                                                                                                    |    |



# PARRANDACHILIK MAHSULOTLARI OMILLI TAHLIL QILISHDA INDEKS USULIDAN FOYDALANISH.

**Bobomuratov Imomkul Islamovich**

Ter DU, Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

19641606@bk.ru

ORCID 0009-0005-7335-0233

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada parrandachilik sohasining hozirgi holatini baholash va rivojlanish sur'atlari va tendensiyalarini aniqlashda indeks usullaridan foydalanish jihatlari bayon qilinadi. Indekslar yordamida muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar shakllanishida ayrim omillarning rolini kuzatish va ishlab chiqarishning asosiy zaxiralarini aniqlash mumkin. Har bir omilning agregat indeksga alohida ta'sirini baholash dastlabki tashxis uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** parrandachilik, statistik tadqiqot, indeks, agregat indeks, omilli tahlil, parranda bosh soni, tuxum, go'sht, go'sht mahsuldorligi, tuxum mahsuldorligi, samaradorlik.

**Abstract:** This article examines the use of the index method to assess the current state of poultry farming and determine its development rates and trends. Indices help track the role of individual factors in shaping key economic indicators and identify major production reserves. Evaluating the impact of each factor on the aggregate index is practically significant for preliminary diagnostics.

**Keywords:** poultry farming, statistical research, index, cumulative index, factor analysis, poultry population, eggs, meat, meat productivity, egg production, productivity.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются аспекты использования индексного метода для оценки текущего состояния птицеводства, а также для определения темпов и тенденций его развития. С помощью индексов можно отслеживать роль отдельных факторов в формировании важных экономических показателей и выявлять основные резервы производства. Оценка влияния каждого фактора на агрегатный индекс имеет практическое значение для предварительной диагностики.

**Ключевые слова:** птицеводство, статистические исследования, индекс, совокупный индекс, факторный анализ, поголовье птицы, яйца, мясо, мясная продуктивность, яйценоскость, продуктивность.

## KIRISH.

Indeks usuli - parrandachilikda iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishning bir qismi bo'lib, iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar dinamikasini tahlil qilish, omillarning mahsulot hajmi va ishlab chiqarish samaradorligining o'zgarishiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Bu usul parrandachilikda quyidagi jihatlarda qo'llanadi, masalan:

Parrandalarning yalpi hosili va o'rta tuxum qo'yishining o'zgarish dinamikasini o'rganish. Bu parrandalarning sonining ko'payishi va tuxum qo'yishning o'zgarishi yalpi hosilning o'sishiga ta'sir qilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Parranda mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishiga omillarning ta'sirini baholash. Masalan, parrandachilik xo'jaliklarida mahsulot tannarxini tahlil qilish, mahsulot birligiga tannarx darajasining o'zgarishi va mahsulot hajmi hamda mahsulot turlarining ko'payishi umumiy xarajatlarga ta'sir qilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Parrandachilik tarmog'ining samaradorligiga omillarning ta'sirini kompleks tahlil qilish. Masalan, indeks usuli yordamida parrandachilik korxonalarining faoliyatini ekspert baholash turli iqtisodiy mexanizmlarning ushbu tarmoqning umumiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini yanada mustahkamlash hamda parrandachilik yo'nalishidagi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash<sup>1</sup>, parrandachilik sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirish uchun raqobatbardosh mahsulotlar hajmlarini ko'paytirish, parrandachilik xo'jaliklarining ozuqaga bo'lgan talabini barqaror ta'minlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, sohaga keng aholi qatlamlarini jalb etish va huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, tarmoqda ilmiy-texnik yondashuvlar va axborot texnologiyasidan samarali foydalanishni tashkil etish<sup>2</sup>, chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik xo'

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 iyundagi "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5146-sonli Qarori

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi "Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-sonli Qarori

jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish, shuningdek, aholining yirik chorvachilik xo'jaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati asosida o'z xonadonlarida chorva mollari boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo'lgan talabini qondirish<sup>3</sup>, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan parrandachilik mahsulotlari bilan ichki bozorlarni to'liq ta'minlash, parrandachilik sohasida zamonaviy genetik texnologiyalarni joriy etish va naslchilik materiallari etishtirishni ko'paytirish, eksportni rivojlantirish hamda mahalliy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish tizimini yanada yaxshilash<sup>4</sup> ga qaratilgan ko'plab davlat rahbari tamonidan qarorlar qabul qilingan. Bu esa albatta parrandachilik rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

Parranda mahsulotlari ishlab chiqarishning holati parrandachilik tarmog'i rivojining asosiy omilidir. Ishning maqsadi indeks usuli asosida parranda mahsuloti ishlab chiqarishni tashxislash va uning o'zgarish dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdir. Parranda mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishining asosiy muammolari ko'rib chiqilgan. Parranda mahsulotlari ishlab chiqarilishini nazorat qilishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish maqsadida indeks usulini tashxis elementlaridan biri sifatida qo'llashni taklif etamiz. Statistik tahlil parranda mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi va parranda mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning xo'jalik faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash uchun zarur.

Parrandachilikda indekslar dastlab zooveterinariya, seleksiya sohasida keng qo'llanilgan, mazkur tadqiqot ishimizda iqtisodiy ko'rsatkichlarni taxlil qilishdagi iqtisodiy indekslarga e'tibor qaratamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Indeksning statistika va boshqa bilim sohalarining rivojlanishidagi roli juda muhim. Indeks nazariyasining iqtisodiy fan uchun ahamiyatini yoritish uchun ko'plab taniqli olimlar bu sohada tadqiqotlar olib borganlar.

A. L. Bouli, A. Marshall, F. Y. Edgevort, I. Fisherlarni nomlarini keltirish mumkin. Nobel mukofoti laureatlari D. Keyns, R. Frisch, P. Samuelsonlar ham indeksologiya sohasidagi tadqiqotlarga birinchi darajali ahamiyat berganlar.

Indeks usuli – ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o'rganishning eng qadimgi va keng tarqalgan statistik usullaridan biri bo'lib, indekslar o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda zamonaviy statistika amaliyotida keng qo'llanilgan, chunki ular moliyaviy-iqtisodiy tahlil o'tkazish uchun qulay vosita hisoblanadi. Dastlab indekslar turli xil mahsulotlarning narxlaridagi nisbiy o'zgarishlarni tavsiflash va tahlil qilish uchun foydalanilgan, ammo hozirgi kunda iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqa hodisalarni tahlil qilishning muhim ko'rsatkichlari va vositalariga aylandi[15].

Indeks, ularning mohiyati va tasniflanishi jihatlarini o'rganishda rus olimlaridan Vasileva E.K., Lyalin V.lar fikricha indekslar, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar yoki jarayonlarning vaqt (dinamik indeks) yoki makon (hududiy indeks) bo'yicha nisbatini aks ettiruvchi nisbiy ko'rsatkichlardir. Indeks yordamida reja topshirig'i, prognoz, normativ va boshqalar bilan ham taqqoslashlar o'tkaziladi deb ta'kidlab o'tadilar[13].

Soatov N.M., Nabiyeu X.lar indeks bu murakkab iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, o'rtacha, nisbiy va mutlaq o'zgarishlarni bir yo'la ifodalaydi deb ta'kidlaydilar. Ular indekslar jarayonlarni ta'riflashi va vazifalari jihatidan to'rt turga bo'linadi: dinamik indekslar, reja (shartnoma)ni bajarish indekslari, hududiy indekslar va xalqaro indekslarga ajratadilar[9].

Abdullayev Y. indekslar pirovard natijada nisbiy ko'rsatkichlar bo'lsa-da, ammo ular nisbiy va mutlaq miqdorlarning yagona birligida ifodalaydi. Shuning uchun ham indekslarni hisoblash natijalariga asoslanib, hodisa o'zgarishining nisbiy miqdorlari bilan bir qatorda, bu o'zgarishning mutlaq qiymatini ham aniqlash mumkinligini ta'kidlab o'tadi[5].

Mahalliy olimlardan Pardayev M iqtisodiy taxlilda natijaviy belgiga omil belgilarning ta'sirini o'rganishda omillar soni 3 va undan ortiq bo'lsa zanjirli almashtirish yoki indeks usulidan foydalanish yaxshi samara berishini va baho, miqdor, tovar aylanish indekslarini ta'kidlab o'tadi [8].

Mahalliy olimlardan Vahobov A.B., Xajibakiyev SH.X., yashil iqtisodiyotni tadqiq qilishda 36 ta ko'rsatkich bilan hisoblanadigan "yashil o'sish" indeksi va global yashil iqtisodiyot indeksini xorijiy manbalarga ko'ra qayd etadi[6].

Qishloq xo'jaligida, jumladan chorvachilik faoliyatini taxlil qilishda xorijiy olimlardan belorus olimlaridan Kislov A.I. kurkachilikda ishlab chiqaruvchilarni baholashda indeks usulida, go'sht parrandachiligi seleksiya ishlarida foydalanishni bayon etadi. Veterinariya va seleksiya yo'nalishida parranda zoti va yosh guruxlari bo'yicha parranda tana qismlarining o'zaro nisbati tarzida ifodalangan indekslardan foydalanilgan[16].

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-sonli Qarori

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 iyundagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli Qarori



Rus olimlaridan Pavlenko E.A.o'z tadqiqot ishlarida yirik shoxli qoramol soni va mahsuldorligini o'rganishda qoramol soni va mahsuldorligi agregat indekslaridan foydalanilgan[18 ].

Koshevoy O.S. sut ishlab chiqarishni omilli taxlil qilishda sut ishlab chiqarishni o'zgaruvchan tarkibli,doimiy tarkibli va tarkibiy siljishlar indekslaridan foydalanilgan[17 ].

Mahalliy olimlardan Mamatqulov B.X., Utanov B.Q.lar qishloq xo'jaligida,jumladan chorvachilikda indeks-larni qo'llash jihatlariga to'xtalib o'tganlar hamda o'zgaruvchan,doimiy tarkibli va tuzilmaviy indekslardan foy-dalanish bo'yicha o'z fikrlarini bayon etganlar [7] .

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini parrandachilikni rivojlantirish va bu sohada kechadigan tendensiya va qonuni-yatlarni taxlil qilish bo'rasida mahalliy hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalari,shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parrandachilikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab quvvat-lashga oid farmon va qarorlari tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati Sur-xondaryo viloyatida parrandachilikni holati va rivojlanishini statistik taxlili asosida aniqlangan tendensiya va qonuniyatlar yordamida parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha istibol reja va loyihalarni amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“Index” so'zi ko'rsatkich, indikator degan ma'noni anglatadi. Statistikada indeks deb vaqt va makonda o'rganilayotgan ijtimoiy hodisaning o'zgarishini yoki rejaning bajarilish darajasini ifodalovchi nisbiy miqdorka aytiladi. Agar taqqoslash asosi sifatida oldingi davr ko'rsatkichi ishlatilsa – dinamik indeks olinadi; agar asos boshqa hududdagi shu hodisaning ko'rsatkichi bo'lsa – hududiy indeks olinadi. Indekslar vaqt yoki makonda elementlari o'lchab bo'lmaydigan ikki to'plamni solishtirish zarur bo'lganda tadqiqotning ajralmas vositasidir.

Indekslar yordamida:

- vaqt bo'yicha bevosita taqqoslab bo'lmaydigan murakkab to'plamlarning o'rtacha o'zgarishlari aniqlanadi;
- umumiy yoki uning bir qismi bo'yicha rejaning o'rtacha bajarilish darajasi baholanadi;
- makondagi murakkab hodisalarning o'rtacha nisbatlari o'rnatiladi;
- vaqt yoki fazodagi murakkab hodisalarning umumiy o'zgarishida alohida omillarning roli aniqlanadi va, xususan, tarkibiy siljishlarning ta'siri o'rganiladi.

Birinchi vazifani yechishda – vaqt o'tishi bilan hodisalarning o'zgarishini o'rganishda – indekslar dinamika ko'rsatkichlari, ikkinchi vazifada – reja bajarilish ko'rsatkichlari, uchinchi vazifada – taqqoslash ko'rsatkichlari, to'rtinchi vazifada – tahliliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qamrov darajasiga ko'ra individual va umumiy indekslar farqlanadi.

Indekslar yordamida muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar shakllanishida ayrim omillarning rolini kuzatish va ishlab chiqarishning asosiy zaxiralarini aniqlash mumkin. Har bir omilning agregat indeksga alohida ta'sirini baholash dastlabki tashxis uchun amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun o'zgaruvchan tarkib indeksi, doimiy (qat'iy) tarkib indeksi va tarkibiy siljishlar indeksi hisoblab chiqilgan, ularning qiymatlari har bir omilning ahami-yatini tasdiqlaydi. Parranda mahsulotlari ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatilgan.

1-jadval: Parrandachilik sohasida indekslarni qo'llash yo'nalishlari

| Taxlil yo'nalishlari   | Qo'llaniladigan asosiy indeks    | Baholash yo'nalishi                                              |
|------------------------|----------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| Ishlab chiqarish hajmi | Miqdor(hajm) indeksi             | Parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini baholaydi. |
| Samaradorlik           | Unumdorlik(mahsuldorlik) indeksi | Tuxum olish darajasi, go'sht chiqish hajmi, ozuqa qaytimi        |
| Narxlar va daromadlar  | Tushum,baho indekslari           | Daromadlilik, baho o'zgarishlarining ta'siri                     |
| Tannarx                | Xarajatlar indeksi               | Tannarxning o'zgarishi                                           |
| Tarkib                 | Tuzima siljishlari indeksi       | Mahsulot turlari bo'yicha ustuvorliklarni o'zgartirish           |
| Omili taxlil           | Kompleks indekslar               | Natija o'zgarishiga ayrim omillarning qo'shgan hissasi           |
| Hududiy taqqoslash     | Hududiy rentabellik indeksi      | Sub'ektlar o'rtasidagi samaradorlik farqi                        |



Har bir parrandachilik mahsuloti turi (tuxum, parranda go'shti, kunlik o'sish va h.k.) umumiy (yalpi) hajmi birinchi darajali omillar, ya'ni qishloq xo'jaligi parrandalari soni va mahsuldorligining bevosita ta'siri hisobiga shakllanadi.

Parrandachilik mahsulotlarining yalpi ishlab chiqarish dinamikasini omilli tahlil qilishda indeks usuli qo'llaniladi.

Mahsulotning (masalan, tuxum yoki parranda go'shtining) yalpi ishlab chiqarishidagi umumiy o'zgarishni hisobot davrida bazis davrga nisbatan indeks yordamida hisoblash mumkin:

$$I_{PY} = \frac{\sum \bar{P}_1 \bar{V}_1}{\sum \bar{P}_0 \bar{V}_0}, \quad (1)$$

Bu erda:

$I_{PY}$ — parrandachilik mahsulotlari yalpi ishlab chiqarish umumiy indeksi;

$\bar{P}_1, \bar{P}_0$ — hisobot va bazis davrlardagi o'rtacha yillik tuxum beruvchi parrandalar soni;

$\bar{V}_1, \bar{V}_0$ — hisobot va bazis davrlardagi 1 ta o'rtacha yillik tuxum beruvchi parrandalardan olingan tuxum miqdori.

Parranda go'shti ishlab chiqarishda:

$\bar{P}_1, \bar{P}_0$ — hisobot va bazis davrlardagi go'sht uchun boqilgan parrandalarning o'rtacha soni;

$\bar{V}_1, \bar{V}_0$ — hisobot va bazis davrlardagi 1 ta o'rtacha go'sht uchun boqilgan parrandalarning o'rtacha vazni.

Tuxum(parranda go'shti) yalpi ishlab chiqarishning mutlaq o'sishi yoki kamayishi har ikki omil hisobiga quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta pv(pv) = \sum \bar{P}_1 \bar{V}_1 - \sum \bar{P}_0 \bar{V}_0 \quad (2)$$

Yuqorida keltirilgan formulalarda yalpi ishlab chiqarish natija shaklda hisobga olinadi. Parrandalar sonini hisoblashda parrandalarning turiga va guruxiga ko'ra shartli koeffitsientlarga muvofiq parrandalarning shartli sonini aniqlash mumkin. Parrandalarning o'rtacha sonini aniqlash uchun o'rtacha arifmetik yoki o'rtacha xronologik formulalardan foydalaniladi.

Tuxum ham parrandalar turu va tuxum vazniga ko'ra toifalarga ajratiladi va ular ham maxsus koeffitsientlarga muvofiq bir shartli ko'rsatkichlarga keltiriladi.

Asosan tuxum etishtiruvchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan parranda go'shti maxsus koeffitsientlar orqali tuxumga o'tkaziladi yoki go'sht etishtiruvchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan tuxum maxsus koeffitsientlar orqali parranda go'shtiga(vaznda) o'tkazilib natija shaklida bir xil mahsulot yalpi mahsulot hajmi aniqlanishi mumkin.

Tuxum(go'sht) beruvchi parrandalar bosh sonining yalpi tuxum(go'sht) ishlab chiqarishga ta'siri quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$I_{\bar{P}} = \frac{\sum \bar{P}_1 \bar{V}_0}{\sum \bar{P}_0 \bar{V}_0}, \quad (3)$$

Tuxum(go'sht) beruvchi parrandalar bosh soni o'zgarishi hisobiga olingan mahsulot (tuxum, go'sht) ishlab chiqarishning mutlaq o'zgarishi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta pv(p) = \sum \bar{P}_1 \bar{V}_0 - \sum \bar{P}_0 \bar{V}_0 \quad (4)$$

Mahsuldorlikning (bir yillik o'rtacha parrandalardan olingan tuxum miqdori) yalpi tuxum(go'sht) ishlab chiqarishga ta'siri quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{\bar{v}} = \frac{\sum \bar{P}_1 \bar{V}_1}{\sum \bar{P}_1 \bar{V}_0}, \quad (5)$$





Parranda mahsuldorligi — bu muayan davrda mavjud parrandalardan olingan olingan mahsulot miqdori. Qishloq xo'jalik parrandalarida tuxum va go'sht mahsuldorligi farqlanadi. Tuxum mahsuldorligi muayan darda tuxum berish uchun boqilgan parrandalardan olingan tuxum soni va vazni bilan farqlanadi. Go'sht mahsuldorligi parrandaning tirik vazni, go'sht sifati va «so'yish chiqishi» bilan belgilanadi.

Parrandalarning yillik tuxum(go'sht) mahsuldorligi hisobiga tuxum(go'sht) etishtirishning yalpi hajmidagi mutlaq o'zgarish quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta p v(v) = \sum \bar{P}_1 \bar{V}_1 - \sum \bar{P}_1 \bar{V}_0 \quad (6)$$

Yuqorida keltirilgan indekslarning o'zaro bog'liqligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_{pV} = I_{\bar{P}} \cdot I_v \quad (7)$$

Mutlaq o'zgarishning o'zaro bog'liqligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta p v(pv) = \Delta P V(p) + \Delta P V(v) \quad (8)$$

**2-jadval:** Surxondaryo viloyatida 2022-2023yillarda tuxum etishtirish daralasini indeks usulida taxlil qilish.

| Tumanlar    | Ona tovuqlar soni ,bosh |           | Bir tovuqdan olingan tuxum |        | Yalpi olingan tuxum,dona |           |
|-------------|-------------------------|-----------|----------------------------|--------|--------------------------|-----------|
|             | 2022 y                  | 2023 y    | 2022 y                     | 2023 y | P0V0                     | P1V1      |
|             | P0                      | P1        | V0                         | V1     |                          |           |
|             | 3 425 752               | 3 917 908 | 158                        | 150    | 542140000                | 589068000 |
| Termiz sh   | 16530,0                 | 16630,0   | 237                        | 244    | 3922800                  | 4063300   |
| Oltinsoy    | 63816,0                 | 70030,0   | 104                        | 99     | 6658000                  | 6945900   |
| Angor       | 191904,0                | 189677,0  | 125                        | 128    | 24007900                 | 24217700  |
| Bandixon    | 47402,0                 | 60894,0   | 148                        | 116    | 7037900                  | 7054100   |
| Boysun      | 154535,0                | 157815,0  | 113                        | 113    | 17527700                 | 17891600  |
| Muzrabot    | 354132,0                | 443840,0  | 169                        | 137    | 59924800                 | 60864800  |
| Denov       | 535117,0                | 771865,0  | 135                        | 152    | 72443200                 | 117665000 |
| Jarqo'rg'on | 491098,0                | 510402,0  | 217                        | 218    | 106662300                | 111429600 |
| Qumqo'rg'on | 213002,0                | 247540,0  | 181                        | 156    | 38460300                 | 38594500  |
| Qiziriq     | 51456,0                 | 52506,0   | 74                         | 128    | 3813300                  | 6717300   |
| Sariosiyo   | 294981,0                | 298461,0  | 97                         | 107    | 28474800                 | 32077900  |
| Termiz t    | 456899,0                | 464463,0  | 219                        | 215    | 100012500                | 99958200  |
| Uzun        | 146529,0                | 225914,0  | 183                        | 66     | 26835800                 | 14878500  |
| Sherobod    | 146508,0                | 141712,0  | 217                        | 225    | 31768800                 | 31871100  |
| Sho'rchi    | 261843,0                | 266159,0  | 56                         | 56     | 14589900                 | 14838500  |

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan foydalanib, tuxum etishtirish dinamikasini taxlil qilishda indeks usulida natura shaklida tuxum etishtirish hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishini hisoblaymiz:

Parrandachilik mahsulotlari(tuxum) yalpi ishlab chiqarish umumiy indeksi;

$$I_{pv} = \frac{\sum p_1 v_1}{\sum p_0 v_0} = \frac{589068000}{542140000} = 1,087 \text{ yoki } 108,7 \%$$

Surxondaryo viloyatida tuxum etishtirish hajmi 108,7 %ga o'zgargan. Tuxum etishtirish hajmi ikki omil hisobiga: ham tuxum beruvchi ona tovuqlar bosh soning o'zgarishi va 1 ona tovuqdan olingan tuxum miqdori hisobiga 8,7 %ga oshgan. Bu miqdoriy jihatdan 2022 yilga nisbatan 46928000 donaga o'sgan.



Yalpi tuxum etishtirish tuxum beruvchi tovuqlar sonining o'zgarishi hisobiga 2023 yilda 2022 yilga nisbatan qancha miqdorda oshganligini quyidagi indeksdan foydalanib topib olamiz:

$$I_{pv(p)} = \frac{\sum p_1 v_1}{\sum p_0 v_1} = \frac{589\,068\,000}{515\,071\,022} = 1,143 \text{ yoki } 114,3 \%$$

Demak, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan tuxum beruvchi ona tovuqlar hisobiga tuxum etishtirish hajmi 114,3 foizga oshgan bo'lib, miqdoriy jihatdan 73996978 donaga ko'p etishtirish imkonini bergan.

$$\Delta pv(p) = 589\,068\,000 - 515\,071\,022 = 73996978$$

Tuxum etishtirish hajmi bir ona tovuq hisobiga olingan tuxum hajmi 5 %ga kamaygan.

$$I_{pv(v)} = \frac{\sum p_1 v_1}{\sum p_1 v_0} = \frac{589\,068\,000}{620025805,5} = 0,95 \text{ yoki } 95,0 \%$$

Bu esa tuxum etishtirish hajmini 30957805 donaga kamayishiga olib kelgan.

$$\Delta pv(v) = 589\,068\,000 - 620025805,5 = -30957805,5$$

Yalpi tuxum ishlab chiqarish hajmi 2022 yilga nisbatan 43039172 donaga oshgan bo'lib, yuqorida keltirilgan omillar hisobiga quyidagicha:

$$\Delta pv(pv) = 73996978 + -30957805,5 = 43039172,5$$

Parrandachilik mahsulotlari yalpi ishlab chiqarish (o'sish) dinamikasining omilli tahlilida quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin: parrandalar bosh soni, mahsuldorlik (bir boshga o'rtacha kunlik o'sish yoki vazn ortishi) va mahsulot beruvchi parrandalarining jami parrandalar bosh sonidagi salmog'i (uch omilli model).

Qishloq xo'jaligi parrandalarining har bir turi bo'yicha mahsulot yetishtirish (o'sish) hajmining umumiy o'zgarishi (bir necha omillar hisobiga) quyidagi indeks orqali hisoblanadi:

$$I_{pdy} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_0 d_0 v_0} \quad (9)$$

Bu erda , — hisobot va bazis davrlardagi o'rtacha parranda bosh soni,

$d_1, d_0$  — tuxum(go'sht) beruvchi parrandalar salmog'i

$v_1, v_0$  — bir bosh parranda hisobiga olingan mahsulot(vazn, tuxum);

Mahsulot etishtirish hajmining qo'shimcha mutlaq o'sishi (kamayishi)ni barcha omillarning ta'siri orqali quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\Delta pdv(pdv) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_0 d_0 v_0 \quad (10)$$

Parranda bosh sonining parranda yalpi mahsuloti hajmining nisbiy o'zgarishiga ta'siri quyidagi indeks yordamida hisoblanadi:

$$I_{pdv(p)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_0 d_1 v_1} \quad (11)$$

Parranda bosh sonining o'zgarishi natijasida olingan mahsulot hajmining qo'shimcha mutlaq o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta pdv(p) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_0 d_1 v_1 \quad (12)$$

Mahsuloti(tuxum, go'sht) beruvchi parrandalar salmog'ining parranda yalpi mahsulot hajmiga ta'siri quyidagi indeks yordamida aniqlanadi:



$$I_{pdv(d)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_1 d_0 v_1} \quad (13)$$

mahsuloti(tuxum,go'sht) beruvchi parrandalar salmog'i indeksi

Mahsuloti(tuxum,go'sht) beruvchi parrandalar salmog'ining o'zgarishi natijasida olingan parranda yalpi mahsulotining mutlaq o'sishini quyidagicha hisoblash mumkin.

$$\Delta pdv(d) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_1 d_0 v_1 \quad (14)$$

Bir parranda hisobiga olingan mahsulot(bir ona tovuqdan olingan tuxum yoki vazn)o'zgarishi natijasida parranda yalpi mahsuloti o'zgarishi quyidagi indeks orqali hisoblanadi:

$$I_{qdv(v)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_1 d_1 v_0} \quad (15)$$

parranda mahsuldorligi indeksi

Bir parranda hisobiga olingan mahsulot(bir ona tovuqdan olingan tuxum yoki vazn)o'zgarishi natijasida parranda yalpi mahsulotining qo'shimcha mutlaq o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta pdv(v) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_1 d_1 v_0 \quad (16)$$

Surxiodaryo viloyati parrandachilik tarmog'i ma'lumotlari bo'yicha hisob kitoblar 2– jadval ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirildi.

$$I_{pdy} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_0 d_0 v_0} = \frac{589068000}{542140000} = 1,0866$$

$$\Delta pdv = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_0 d_0 v_0 = 589068000 - 542140000 = 46\,928\,000$$

$$I_{(p)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_0 d_1 v_1} = \frac{589068000}{570738244} = 1,031$$

$$\Delta pdv(p) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_0 d_1 v_1 = 589068000 - 570738244 = 18329756,1$$

$$I_{(d)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_1 d_0 v_1} = \frac{589068000}{531612977,2} = 1,108$$

$$\Delta pdv(d) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_1 d_0 v_1 = 589068000 - 531612977,2 = 57455022,8$$

$$I_{(v)} = \frac{\sum p_1 d_1 v_1}{\sum p_1 d_1 v_0} = \frac{589068000}{620025805,5} = 0,950$$

$$\Delta pdv(v) = \sum p_1 d_1 v_1 - \sum p_1 d_1 v_0 = 589068000 - 620025805,5 = -30957805,5$$

Indekslarning o'zaro bog'liqligi quyidagiga teng:

$$I_{pdy} = I_{(p)} \cdot I_{(d)} \cdot I_{(v)} = 1,031 \cdot 1,108 \cdot 0,950 = 1,0866$$

Uchala omil hisobiga yalpi tuxum ishlab chiqarish hajmi quyidagiga teng:

$$\Delta p_{dv} = 18329756,1 + 531612977,2 + -30957805,5 = 46\,928\,000$$

3-jadval: Uch omilli indeks taxlili

| Tumanlar    | Parranda soni |           | Tuxum beradigan tovuqlar salmog'i |        | Bir ona tovuqdan olingan tuxum |        |
|-------------|---------------|-----------|-----------------------------------|--------|--------------------------------|--------|
|             | 2022y         | 2023 y    | 2022 y                            | 2023 y | 2022 y                         | 2023 y |
|             | q0            | q1        | d0                                | d1     | v0                             | v1     |
|             | 5 127 745     | 5 292 427 | 0,668                             | 0,740  | 158                            | 150    |
| Termiz sh   | 32 838        | 32 840    | 0,503                             | 0,506  | 237                            | 244    |
| Oltinsoy    | 121 153       | 128 660   | 0,527                             | 0,544  | 104                            | 99     |
| Angor       | 252 195       | 253 004   | 0,761                             | 0,750  | 125                            | 128    |
| Bandixon    | 69 867        | 83 545    | 0,678                             | 0,729  | 148                            | 116    |
| Boysun      | 256 484       | 252 863   | 0,603                             | 0,624  | 113                            | 113    |
| Muzrabot    | 480 590       | 499 912   | 0,737                             | 0,888  | 169                            | 137    |
| Denov       | 784 907       | 815 618   | 0,682                             | 0,946  | 135                            | 152    |
| Jarqo'rg'on | 645 879       | 676 943   | 0,760                             | 0,754  | 217                            | 218    |
| Qumqo'rg'on | 360 470       | 399 201   | 0,591                             | 0,620  | 181                            | 156    |
| Qiziriq     | 102 463       | 109 987   | 0,502                             | 0,477  | 74                             | 128    |
| Sariosiyo   | 442 183       | 447 030   | 0,667                             | 0,668  | 97                             | 107    |
| Termiz t    | 603 381       | 603 343   | 0,757                             | 0,770  | 219                            | 215    |
| Uzun        | 304 739       | 314 868   | 0,481                             | 0,717  | 183                            | 66     |
| Sherobod    | 277 885       | 280 444   | 0,527                             | 0,505  | 217                            | 225    |
| Sho'rchi    | 392 711       | 394 169   | 0,667                             | 0,675  | 56                             | 56     |

Tahlillardam ma'lumki, Surxondaryo viloyatida parrandalar bosh soni 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 114,4 %ga oshgan bo'lib, bir ona tovuqdan olingan tuxum 158 donadan 150 donaga tushib qariyb 5 %ga kamaygan. Natijada viloyatda yalpi tuxum ishlab chiqarish miqdori 2023 yilda 2022-yilga qaraganda 8,7 %ga oshgan.

Tumanlar kesimida Bandixon tumanida parranda bosh soni 128,5%, Muzrabot tumanida 125,3%, Denov tumanida 144,2%, Qumqo'rg'on tumanida 116,2%, Oltinsoy 109,7%, Jarqo'rg'on 103,9%, Uzun tumanida 154,2% ko'pyanligini ko'rishimiz mumkin. Angor tumanida 98,8%, Sherobod tumanida 96,7%ga tushganligiga guvoh bo'lamiz. Qolgan tumanlarda 1-2 %ga ko'paygan.

Yalpi tuxum miqdoriga tuxum beruvchi tovuqlar salmog'i ham ta'sir ko'rsatgan. Tuxum beruvchi tovuqlar salmog'i viloyatda 66,8%dan 74 %ga ko'paygan. Tuxum beruvchi tovuqlar salmog'i bo'yicha Angor, Bandixon, Muzrabot, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz tumanlari etakchi o'rinda turadi.

Bir bosh ona tovuqdan olingan tuxum darajasi tumanlar kesimida Denov tumanida 135 donadan 152 donaga, Jarqo'rg'on tumanida 217 donadan 218 donaga, Sherobod tumanida 217 donadan 225 donaga ko'paygan, Termiz tumanida esa 219 donadan 215 donaga kamaygan.

Tumanlar kesimida yalpi tuxum ishlab chiqarish hajmi Denov tumanida 162,4%, Qiziriq tumanida 176,2%, Sariosiyo tumanida 112,7 %, Jarqo'rg'on va Oltinsoy tumanlarida tumanida 104%dan oshgan. Qolgan tumanlarda 1-2% atrofida o'sgan. Faqat Uzun tumanida deyarli 50%ga kamaygan. Natijada viloyatda tuxum ishlab chiqarish hajmi 8,7 % qo'shimcha o'sishga erishilgan.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Indekslar – iqtisodiyotda turli hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda ko'p foydaladigan murakkab ko'rsatkichlardir. Mutlaq va nisbiy, o'rtacha o'zgarishlarni o'rganuvchi ko'plab ko'rsatkichlar mavjud: o'sish va o'sish sur'atlari, mutlaq o'sish, zanjirli va bazis ko'rsatkichlar, davr uchun o'rtacha o'zgarishlar ko'rsatkichlari. Indeks-lar ham nisbiy, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar bo'lib, bir xil hodisaning ikkita holatini – oddiy yoki murakkab, o'lchovli yoki o'lchovsiz elementlardan iborat bo'lgan holatlarini taqqoslashga imkon beruvchi o'ziga xos asosiy xusus-siyatlarga ega. Bu xusus-siyatlar quyidagilardan iborat:





birinchidan, indekslar murakkab hodisalarning o'zgarishini o'lchashga imkon beradi. Ya'ni, bu shunchaki ikkita sonni taqqoslash emas, balki ba'zi agregatlangan miqdorlarni olish va taqqoslashdir;

ikkinchidan, indekslar o'zgarishni tahlil qilishga – alohida omillarning ta'sirini aniqlashga imkon beradi;

uchinchidan, indekslar nafaqat o'tgan davr bilan (vaqt bo'yicha taqqoslash), balki boshqa hudud bilan (makoniy taqqoslash), shuningdek me'yorlar bilan taqqoslash ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Parrandachilikda iqtisodiy ko'rsatkichlarni taxlil qilishda individual va agregat indekslardan keng foydalaniladi. Agregat indekslardan yalpi hosil va mahsuldorlik indekslari, tannarx, mahsulot qiymati, narx indekslaridan parrandachilik faoliyatini taxlil qilishda keng foydalanish mumkin.

Indeks usulida taxlil qilganimizda viloyatda tuxum etishtirishda asosan parranda bosh sonining ko'payishi va bir ona parrandadan olingan tuxum miqdori kamayishi natijasida o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari parranda bosh sonida tuxum beruvchi parrandalar ulushining o'zgarishi hisobiga ham tuxum berish hajmi o'zgarishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, parranda mahsulotlarini ko'paytirish parranda bosh sonini oshirish hisobigina emas, shu bilan birga parrandalarning mahsuldorligini oshirish, ularning zotlarini yaxshilash hamda saqlash va parvarishlash sifatini oshirish ham zarur.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-iyundagi "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5146-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238sonli Qarori
5. Abdullaev Yo (2002). Statistika nazariyasi. T.: „O'qituvchi“, 592 b.
6. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. va boshqalar.(2020). Yashil iqtisodiyot: Darslik. Toshkent.: "Universitet", 262 b.
7. Mamatqulov B.X., Utanov B.Q.(2020) "Qishloq xo'jaligi statistikasi". Darslik. Toshkent. Iqtisodiyot.
8. Pardaev M. K, Isroilov B. I.( 2001) Iqtisodiy tahlil: (O'kuv qo'llanma): 1-kism. Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi 176 bet.
9. Soatov N.M., Nabiyeu X., Nabiyeu D.X., Tillaxo'jaeva G.N.(2011) Statistika nazariyasi. Darslik. T.: TDIU, 546 bet.
10. Bobomuratov, I. (2024). Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(3).
11. Bobomuratov, I. (2024). Parrandachilik statistikasi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishning nazariy asoslari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(4).
12. Bobomuratov I. (2025). Parrandachilikni statistik o'rganish usullari. "RAQAMLI IQSODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 12-SON |
13. Васильева Э.К., Лялин В.С.(2012) Статистика: учебник. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 399 с.
14. Годин А. М. (2020) Статистика: Учебник для бакалавров / 12-е изд., стер. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 410 с.
15. Захорошко, С. С.(2018). Теория и методология экономических индексов : монография / С. С. Захорошко. – Гродно : ГГАУ, 270 с.
16. Киселев А.И. (2000). Индексный метод оценки производителей в индейководстве. Ученые записки УО ВГАВМ. - Витебск, Т. 36, ч. 1
17. Кошевой О. С.(2015). Индексный метод как элемент диагностики производства молока. Нива Поволжья № 1 (34) февраль
18. Павленко Елена Анатольевна. (2014) Индексный анализ численности и продуктивности крупного рогатого скота (коров) в Республике Дагестан. Экономические науки. теория и практика общественного развития, № 21).

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)